

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TARAQQIYOTIDA ADABIY
TOPISHMOQLARNING O'RNI

Ismoilova Surayyo Qo'ziyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14043505>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida adabiy topishmoqlarning o'rni haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

Kalit so'zlar: topishmoqlar, adabiy topishmoqlar, chiston, janriy xususiyatlar, o'zbek adabiyoti, taraqqiyot.

THE ROLE OF LITERARY RIDDLES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK
CHILDREN'S LITERATURE

Abstract. This article comments on the role of literary riddles in the development of Uzbek children's literature.

Key words: riddles, literary riddles, chiston, genre features, Uzbek literature, development.

РОЛЬ ЛИТЕРАТУРНЫХ ЗАГАДОК В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ
ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль литературных загадок в развитии узбекской детской литературы.

Ключевые слова: загадки, литературные загадки, чистон, жанровые особенности, узбекская литература, развитие.

Topishmoqlar xalqning turmush tarzi va qadimiy e'tiqodlari ifodasi sifatida boy ma'naviy merosimiz sanaladi. Topishmoqlar shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda—«insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda» (F.I.Buslaev) paydo bo'la boshlagan.

Qadimgi ajdodlarimiz tabiat stixiyasi oldidagi ojizliklari tufayli narsalarni, odamlarni, hayvonlarni, qushlarni o'z nomlari bilan aytmay, ularni g'ayritabiiy kuchlar zararidan, insu jinslar va balo- qazolardan omon saqlashni ko'zlab, boshqa so'zlar bilan pardali qilib ayta boshlashlari tufayli ilk topishmoqlar yuzaga kelgan, buning izlarini hozirgi o'zbek topishmoqlarida ham kuzatish mumkin, aytaylik, otani-nor, momoni-tuya, echkini-Abdukarim, quyonna-uzunquloq, itnishalpangquloq, ko'zni-darcha, bug'doyini-qizil deb atalashida o'sha sirlik nishonalari mavjud.

Predmetli topishmoqlarda yashiringan aniq narsaning individual xususiyatlari lo'nda, siqiq, sodda va tushunarli tarzda badiiy so'z vositasida chizib beriladi. Ularda borliqdagi narsalarning o'zaro o'xshashligi va yaqinligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shu ma'lumotlar yordamida inson tevarak-atrofidagi narsa-hodisalarning serqirraligini his qiladi. Predmetli topishmoqlarda yashiringan narsaning miqdori muhim rol o'ynaydi. Shu xususiyatiga ko'ra topishmoqlar ikki turkumga ajraladilar:

1. Bir predmetli topishmoqlar. Bu xildagi topishmoqlarda birgina narsa jumboqlanadi:

Jumboq ham bitta, javob ham bittadir: «Bossang, vaqillaydi», «Jar boshida jarti supra» topishmoqlari birgina satrdan iborat holda jumboqlangan va «baqa» hamda «quloq» singari birgina javobga ega. Bunday topishmoqlar ikki, uch, to'rt satrli ham bo'lishi mumkin. «Oy»ni yashirgan

«Bir parcha patir-olamga tatir» ikki satrli, «baliq»ni yashirgan «Suv ichar ko‘ldan, ko‘zlari nurdan, terisi puldan» uch satrli va «toshbaqa»ni yashirgan «Beli, beli belang ot, Beli qalin yo‘g‘on ot, Tog‘u toshdan yumalab, Tura kelar to‘rig‘ ot» to‘rt satrli bo‘lsa-da, bir predmetli topishmoqlardir.

Chunki ulardagi har bir satrda yashiringan narsaning bir belgi-xususiyati ta’rif yo tavsif qilingan. Biroq aslida birgina narsani jumboqlagan bir necha mustaqil topishmoqlar o‘zaro birlashib, bir butunlik hosil qilishgan esa-da, biribir, birgina javobga ega bo‘lib, bir predmetli topishmoqligicha qolavergan: Chopsa-chopilmas,

Bo‘lsa-bo‘linmas,
Kessa-kesilmas,
Ko‘msa-ko‘milmas,
Yo‘nsa-yo‘nilmas.

Besh satrning har biri mustaqil topishmoq sifatida «soya» hodisasini yashirganidek, bir butun holatida ham shu yagona javobga ega. Bu xildagi topishmoqlar sodda topishmoqlar deb ham yuritiladi.

2.Ko‘p predmetli yoki murakkab topishmoqlar. Yuqorida ko‘rilganidek, hamma birlashgan topishmoqlar ham bir predmetli bo‘lavermaydi. Aytaylik: Tog‘da talaymonni ko‘rdim, Suvda sulaymonni ko‘rdim. Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim, Yumalab yotgan toshni ko‘rdim,-topishmog‘ining har bir satri mustaqil bir jumboq bo‘lib, ko‘p predmetlilik xususiyatini kasb etgan.

Bu murakkab topishmoqda bir yo‘la to‘rt narsa-bo‘ri, baliq, sumalak va toshbaqa jumboqlangan. Har bir bayti alohida topishmoq shaklida ham aytilishi mumkin, faqat saj‘lanish asosidagi ohangdoshlik baytlarda bir butunlikni yuzaga keltirib, kompozitsion yaxlitlikni ta‘minlagan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, aslida topishmoqlar har gal bir predmetli shaklda jumboqlanib yuzaga kelgan esa-da, og‘zaki ijro jarayonida vaqt o‘tishi bilan yangi-yangi jumboqlanishlar evaziga murakkablasha borib, ko‘p predmetlilik xususiyatini kasb etishgan:

«Chaqaloq» qachonlardir «Og‘zida bor ozig‘i» tarzida bir predmetli topishmoq holda jumboqlangan, keyinchalik beshik paydo bo‘lib, sumakdan foydalanish odatga kirgach, ikkinchi predmet ham yondosh holda jumboqlana boshlangan, natijada topishmoq yana to‘lisha borgan:

Og‘zida bor ozig‘i,
Tagida bor qozig‘i.

Davr o‘tishi bilan «beshik», «ko‘krak» va «tuvak» ham jumboqlanib, topishmoqning yanada murakkabroq namunasiga aylangan. Bunda jumboqlangan predmetlarning mantiqan o‘zaro aloqadorligiga e’tibor berilgan:

Taqir-taqir taqirmon, uni toping dilbarim,
Ichida bor mehribon, uni toping dilbarim.
Og‘zida bor ozig‘i, uni toping dilbarim,
Tagida bor qozig‘i, uni toping dilbarim.
Qozig‘ osti xurmacha, uni toping dilbarim.

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko‘ra maqolga o‘xshaydi. Ba’zan mazmuniga ko‘ra yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa. Janrning nomlanishi “Top” so‘zining talaffuz etilishidanoq o‘yla, axtar, solishtir, izla ma’nolari yetakchilik qiladi. Unga “ish” qo‘shimchasi qo‘shilganda vazifa aniqlashadi. “moq” harakat nomi qo‘shimchasidan keyin “qo‘lingdan kelsa”, “eplasang”, “uddalay olsang” tushunchalari ifodalanadi.

Hajm jihatdan qisqa va ixcham, shaklan she'riy, nasriy ko'rinishga ega, yashiringan narsani toppish vazifasi qo'yiladi. Mazmuniga ko'ra hayvonot, o'simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyati yashirin tarzda ifadalanadi. Topishmoqda topilishi lozim bo'lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

Masalan: Pak- pakana bo'yi bor,

Yetti qavat to'ni bor.

Bu topishmoqda yashirin predmetning asosiy ma'nosini bildirgan so'zlar "pak-pakana", "yeti qavat to'ni" deb ko'rsatiladi. O'quvchilar topishmoqlarning yaratilish tarixi haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Xalqimiz o'z qilgan mehnatlari davomida, yashash tarzidan chiqqan holda, tabiat hodisalarning kuzatib ulardan xulosa chiqarib, mana shunday topishmoqlar yaratganliklarini, hozirda esa fan texnikaning rivojlanishiga asosan ko'plab yangi topishmoqlar yaratilayotganini ma'lumot beradi.

O'zining o'lmas asarlari bilan o'zbek adabiyotida tarixida o'chmas iz qoldirgan Alisher Navoiy va Uvaysiyalar ijodida ham bir qancha chistonlarni uchratishimiz mumkin. Chiston dastlar fors-tojik adabiyotida turkiy adabiyotidan bir necha asr ilgari ham mavjud bo'lgan. Chiston mumtoz adabiyotdagi she'riy topishmoq bo'lib "chist" (nima), "on" (u) so'zlaridan olingan.

Chistonning hajmi cheklanmagan, lekin ko'pincha bir yoki ikki bayt bo'ladi. Navoiy ijodida o'nta chiston mavjud. "Qalam", "Tanga", "O'q", "Anor", "Yumurta", "Poki"(ustara), "Parvona".

Manbalarga ko'ra Uvaysiy qalamiga mansub chistonlar ellikdan ortiq. "Anor", "Tunkun", "Yong'oq", "Qaychi", "Uyqu" chistonlari shular jumlasidandir. Navoiy esa Uvaysiy yaratgan chistonlarda o'zaro bog'liqlik sifatida "Anor" va "Qaychi" chistonini keltirish mumkin.

Anvar Obidjon "Anor" adabiy tomishmog'ida ulardagi biror-bir jihatni takrorlamagan.

Ustozlar an'anasiga ergashib, anorning xususiyatlari haqida mahorat bilan jumboq yaratganki, she'r o'zbek adabiy topishmoqchiligidan munosib o'rin egallay oladi.

Men turaman

Bukib shox,

Kamtarinman

Va yumshoq.

Shundan hamma

Shirin der

Uzib olay

Birin der

Bolakaylar

Chug'urlab,

Meni bog'dan

O'g'irlab,

Qo'yinlarga

Urishar

So'ng qichqirib

Yurishar

O.Safarov shunday yozadi: " Ayonki, she'riy topishmoqlar hajman ixcham, aniq va ramzdorligi bilan xarakterlansada, ularda birgina narsa hodisa jumboqlishi tufayli g'oyat qisqa hajmga ega bo'ladi. Topishmoq yaratish oson ish emas. Negaki, ham badiati pishiq, ohangi ravon she'r bo'lishi zarur, ham topishmoq janri xususiyatlariga ega bo'lishi shart. Adabiy topishmoq yaratish uchun shoir istedadli, mahoratli bo'lishi bilan birga, bilimli, zukko bo'lishi ham darkor.

Ilyos Muslimda ham adabiy topishmoqlar bor.

Keng, yop- yorug' binoda

O'tirgandek kinoda,

Ko'ramiz kansert, o'yin,

Tinglaymiz “Bahor” kuyin,
Qo‘shiq aytar, turmas jim,
Tezroq o‘ylab topar kim?

Adabiy topishmoqlar yosh avlodning o‘tkir, ziyarak, farosatli, dono bo‘lishini ta’minlaydi.

Ulardagi tafakkurni shakllantiradi. Maktabgacha tarbiya hamda boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar bunday aytib yuradilar. Ammo masalaning boshqa jihati ham bor: adabiy topishmoqlarning badiiy, ayni damda topishmoqlik xususiyatlari hamisha xalq topishmoqlari darajasiga yetavermaydi. O‘zbek xalq topishmoqlari bilan bellashadigan o‘zbek adabiy topishmoqlari anchagina ekani shoirlarimizning yutug‘idir. G‘afur g‘ulom, Po‘lat Mo‘min, Anvar Obidjon singari shoirlarning topishmoqlari adabiy topishmoqlar sifatida ham, belgi-xususiyatni yashirin mahoratlar, badiiyati jihatidan ham e’tirofga loyiq. Zero, inson olamga kelishi bilan alla eshitadi, alla qo‘shiqqa, qo‘shiq esa ertak, maqol, masal, rivoyat va topishmoqqa ulanib ketadi. Bularning hammasining zahirida bola tarbiyasi yotadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodi bola kamolotida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bolani topishmog‘-u ertakka mehr - muhabbatini uyg‘otadigan onaxonlarimiz kòpayaversin-u an‘analarimiz òlmasin.

REFERENCES

1. Шарипова Махбуба Бахшиллоевна, Саъдуллаева Мохинурбегим Баходир Кизи РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ // Проблемы педагогики. 2020. №6 (51). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-tvorcheskih-sposobnostey-detey-v-doshkolnom-obrazovanii> (дата обращения: 22.12.2021).
2. Sharipova M. O‘quvchi yoshlar tarbiyasida o‘lmas an‘ana va marosimlarning ahamiyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
3. Sharipova M. Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir xazinasasi (" Alpomish" dostoni misolida) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
4. Шарипова М. Б., Саъдуллаева М. Модульное обучение в системе образования //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 72.
5. Шарипова М. Б. НАЦИОНАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ НА ПРИМЕРЕ ЭПОСА «АЛПОМИШ» //ББК 74.48 Р 76. – С. 253.
6. Шарипова М. Б. РАЗДЕЛ 6. ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ //Редакционная коллегия. – С. 140.
7. Sharipova M. ЭПОСА" АЛПОМИШ"-ИСТОЧНИК НАРОДНОГО ВОСПИТАНИЯ, ВЕДУЩИЙ ПОКОЛЕНИЕ К СОВЕРШЕНСТВУ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 12. – №. 12.
8. Sharipova M. B., Muslimova L. M. Q. XALQ DOSTONLARINI O‘RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI (“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1130-1134.
9. Sharipova M. B. Xursand Nuriddinova Mirzayeva XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI //Scientific progress. – 2021. – №. 7.

10. Sharipova M. B. Gulshoda Fazliddin Qizi Ravshanova QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR //Scientific progress. – 2021. – №. 7.
11. Шарипова М.Б., Нейматова Ш.Н. ФОРМИРОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ // Вестник магистратуры. 2020. №3-3 (102). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-esteticheskoy-kultury-vospitannikov-doshkolnyh-obrazovatelnyh-uchrezhdeniy> (дата обращения: 07.10.2022).
12. Шарипова М. Б., Саъдуллаева М. Модульное обучение в системе образования //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 72.
13. Sharipova M. B., Marg'Uba Fazliddin Qizi Jomurodova X., IFODASI D. S. M. B. Scientific progress. 2021. № 7 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqdostonlarida-sovchilik-marosimi-badiiy-ifodasi-alpomish-dostoni-misolida> (дата обращения: 22.12. 2021).
14. MA'NAVIY Y. A. R. V. A., O'RNI D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU //Maktabgacha ta'lim.
15. Sharipova, Maxbuba Baxshilloyevna. "Gulasal Shavkat Qizi Farmonova NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)." *Scientific progress* 7 (2021).
16. Sharipova M. B., Jalolova S. Z. Q. HOZIRGI MAISHIY TURMUSHDA O'Z O'RNIGA TO'LA EGA BO'LGAN MAROSIMLAR ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1114-1119.
17. Шарипова М. Б., Саидова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.
18. Шарипова М. Б., Саидова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.
19. Baxshilloyevna S. M. et al. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA "ALPOMISH" DOSTONING O'RNI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 146-152.
20. Шарипова М.Б., Хусаинова З.Х. ВОСПЕВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ГЕРОИЧЕСКОМ ЭПОСЕ // Вестник науки и образования. 2021. №16-2 (119). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vospevanie-natsionalnyh-duhovnyh-tsennostey-v-geroicheskom-epose> (дата обращения: 07.10.2022).
21. Sharipova M. YOSH AVLOD RUHIY VA MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA QAHRAMONLIK EPOSINING O'RNI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021. – С. 116-117.
22. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ O'QITIRISHNING ILMIY-NAZARIY AHAMIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 35(35).

23. Baxshilloeyevna, S. M., & Mirzoyevna, I. M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ETNIK MADANIY TA'LIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 163-163.
24. Sharipova, M. B., & Salimova, K. R. Q. (2021). "ALPOMISH" DOSTONIDA "KAMPIR O'LDI" MAROSIMI TASVIRI. *Scientific progress*, 2(7), 1109-1113.
25. Шарипова, М. Б., & Нейматова, Ш. Н. (2020). Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений. *Вестник магистратуры*, (3-3 (102)), 113-114.
26. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir hazinasi ("Alpomish" dostoni misolida). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
27. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
28. Sharipova, M. (2024). Historical-Vital Bases of Epos And Ritual Expression (In The Example of the Epic "Alpomish"). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
29. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
30. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
31. Sharipova, M. B., & G'afurova, A. A. (2024). METHODOLOGY OF STAGING IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 3(1), 21-29.
32. Sharipova, M. (2023). O 'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA'LIMOTI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
33. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TALIM YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
34. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O'YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'LLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
35. MA'NAVIY, Y. A. R. V., & O'RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloeyevna BuxDU. *Maktabgacha ta'lim*.
36. SHARIPOVA, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONINI O'ZBEK VARIANTLARI ORASIDAGI MAROSIMLARNING BADIY TALQINI. *Journal of Research and Innovation*, 1(10), 45-52.
37. Baxshilloeyevna, S. M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONIDA SUNNAT TO 'YI MAROSIMINING BADIY TALQINI. *Научный Фокус*, 1(2), 1091-1095.
38. Baxshilloeyevna, S. M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONINI O 'RGANISH BOSQICHLARI, METODLARI HAMDA KUYLASH ETOSI. *Научный Фокус*, 1(2), 1096-1100.

39. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ETNIK MADANIY TA'LIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 35(35).
40. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IFODALI NUTQNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 32(32).
41. Sharipova, M., Ro'ziboyeva, Z., & Yovqocheva, H. (2024). FEATURES OF ACHIEVEMENT OF A CAREER IN PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(5), 1370-1376.
42. Baxshilloeyvna, S. M. (2024). ARXAIK EPOSNING SUJET STRUKTURASIDA MOTIVLAR TAHLILI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(4), 343-349.
43. Шарипова, М. Б. (2024). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 77-82.
44. Bakhshilloeyvna, S. M., & Akmalovna, A. M. M. (2024, February). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 49-51).
45. qizi Hamidova, U. F., & Sharipova, M. B. (2024, February). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 3, No. 1, pp. 73-82).
46. Шарипова, М. Б., & Ньматуллоева, М. (2024, February). ТЕОРИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ ЭРИКА ЭРИКСОНА СРЕДИ ДРУГИХ ПОДХОДОВ И НАУЧНОЙ МЕТОДОЛОГИИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 6-13).
47. Шарипова, М. Б., & Ньматуллоева, М. (2024, February). КОМПЛЕКСНАЯ КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ И ЕЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*—Brno, Czech (Vol. 1, pp. 18-25).
48. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
49. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
50. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).

51. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIK-BAYY XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
52. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ETNIK-MADANIY TA'LIM TIZIMI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 32(32).